

O'ZBEK MUSIQASINING JAHON MUSIQA SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI

Ikromjonova Barchinoy

Navoiy davlat universiteti

"Musiq ta'limi" yo'nalishi talabasi

Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi

Ilmiy rahbar, "Musiq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa san'ati insonlar uchun qanchalik muhim ekanligi, musiqa san'atini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, musiqa san'atiga doir qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati, Yangi O'zbekistonda musiqaning o'rni qay darajada ekanligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, musiqa, san'at, madaniyat, maqom, cholg'u,*

Kuy.

Musiq - ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o'ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o'zgartirishga yordam beradi. Ma'lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Musiq insonning turmush tarzi va ijtimoiy hayotida, mehnat va dam olish chog'larida albatta ishtirok etadigan bo'lib, kishini ma'naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shaxsning ma'naviy olamini, axloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiyaning samarali quroli hisoblanadi. Musiqaning o'zi, uning yaratuvchilari, ijro etuvchilari, tinglovchilaridan iborat musiqa madaniyati jamiyat madaniyatidagi muhim bir sohadir. Umuman olganda musiqa ham dastavval inson ongiga ona allasi orqali singadi. Vaqt o'tishi sayin musiqaga bo'lgan ehtiyoj va qiziqsh ham shu tarzda shakllanadi.

Musiq inson ijtimoiy-ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi va ma'lum darajada uning holatini belgilovchi unsurdir. Musiq shaxs psixologiyasini turli holatda harakatlantiruvchi bir lamchi omildir.

Kayfiyatini ko'tarishi, yaratuvchanlikka, ijodkorlikka undashi, xafa qilishi, tushkunlikka tushirishi mumkin. Aytilgani kabi bular musiqaga bog'liq. Lekin biz yuqorida keltirib o'tganlar ko'p jihatdan qo'shiqqa xos. Qo'shiqni esa biz fiziologik jihatdan (ohangni) eshitish, psixologik jihatdan (so'zlarni)tahlil qilish orqali o'zimizga qabul qilamiz. Musiqashunoslida musiqiy idrok tushunchasi bo'lib, biz qo'shiq yoki musiqiy asrni musiqiy idrok orqali his qilamiz. Tom ma'noda shu orqali musiqaning ruhiy va jismoniy holatimizga ta'sirini anglaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 112-sonli qarori o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatini shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab quvvatlash qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Qarorga ko'ra, musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, 2022-2023-o'quv yili davomida ro'yxatida keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjati (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi. 2023/2024-o'quv yilidan boshlab esa, kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilariga majburiy hisoblanadi. Albatta, mazkur qaror ijrosi to'laonli ta'minlansa, o'sib borayotgan yosh avlodda, musiqaga, milliyligimizga muhabbat kun sayin rivoj topib boradi desak adashmaymiz. Sababi, bizning xalqimizda qadimdan musiqaga muhabbat, oshuvtalik jo'sh urgan. Mohir sarkarda Sohibqiron Temur bobomiz ham hatto, janggi kirishda qo'shinni ruhlandırishda shoshmaqomni eshittirishlari, jangga kirishishda nog'oralar jo'rligida jangovarlik ruhini olg'a surganligiga tarix guvoh.

Buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib, shunday degan: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanot tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi".

Musiqiy ta'lim nafaqat, bola tarbiyasida, balki butun jamiyat, xalq tarixi oynasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tarixga ega bo'lgan xalq, albatta, madaniyati kuchli xalq sanaladi. Har bir inson qalbining tub-tubida bo'lsa ham musiqaga oshno bo'ladi. Ammo uni eshita olganlarga buyuk san'atkor bo'la oladi. Musiqaga sevgi, unga o'zgacha muhabbatni uyg'ota olish - ustozning ham harakatlari tufayli bo'ladi, albatta.

O'qituvchilik kasbi sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik

mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kiyinish madaniyati va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. U o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'rishi hamda ularni barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashishi, har bir darsni o'quvchilarni hayot tajribasiga bog'lagan holda olib borishi, xilma-xil metodlar, innovatsion texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, kompyuter slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak. O'z kasbiy mutaxassisligini puxta

egallagan bo'lishi, bolalar ovozigga o'zining ovozini moslab kuylay olishi, ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, sinfdan tashqari to'g'araklarga o'quvchilarni jalb etish bilan turli tanlovlarda, tadbirlarda o'quvchilar faol ishtirok etishi kerak. Bugungi kunda Madaniyat va turizm vazirligi tizimida 323 ta bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritadilar. Ularda jami 14 ta yo'nalish bo'yicha 86015 nafar o'quvchi ta'lim oladi. 2023-yil 13-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sohalarni belgilab olish maqsadida bir nechta vazirlar bilan uchrashib majlis o'tkazdi. Majlida Prezidentimiz Yosh avlodni yuksak madaniyat ruhida tarbiyalash masalasiga ham to'xtalib o'tib, teatr, musiqa va kino sohasini rivojlantirish, maqom va baxshichilikni asrab-avaylash muhimligini ta'kidladi. Ko'rib turibmizki, madaniyat va san'at sohasining bir qismi bo'lgan musiqa san'atini rivojlantirish borasida juda katta salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasalari va ijodiy jamoalarni zamon talabiga mos va usta-hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan sifatli musiqa cholg'ulari bilan ta'minlashda yetarlicha imkoniyatlar mavjud emasligi, shuningdek, milliy musiqa cholg'ulari yasovchi usta-hunarmandlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish va shu yo'nalishdagi ustalarning yangi avlodini tarbiyalash, usta-hunarmandlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish tizimini yanada kengaytirish, hunarmandchilik mahsulotlari uchun yangi bozorlarni topish borasida qo'shimcha choralar ko'rish talab etilmoqda. Moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash, targ'ib etish va yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, bu borada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizga hamohang tarzda milliy musiqa cholg'ularini ommalashtirish va ishlab chiqarish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan "Milliy musiqa cholg'ularini ommalashtirish va ishlab chiqarish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidenti qaror loyihasi tayyorlangan va muhokamadan o'tkazilgan. Har qanday musiqiy asar va har qanday qo'shiq inson kamoloti uchun xizmat qilishi lozim. Bu borada asosan yoshlar bilan targ'ibot ishlari tashkil qilinishi, ularni milliy musiqalarimiz, maqom san'atimiz va xalq og'zaki ijodiga qiziqtirish kerak. Gap shundaki, ko'pgina yoshlar bularga zerikarli yoki qo'pol qilib aytganda eskilik sarqiti sifatida qarashlari juda achinarlidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibraximjanova Gavxar Amanbayevna, Urmanova Lola Akbarovna, Xodjayeva Maxfuza Xalilovna, Xalilov Faxriddin Nuriddinovich. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) // Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

2. Botir o'g'li, R. S. (2024). CRIMINAL LIABILITY FOR FRAUDULENT ENTREPRENEURSHIP. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(12), 94-97.
3. Утапулатов, А. Т. (2024). Концептуальные Основы Обеспечения Информационной Безопасности. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 2(15), 111-113.
4. Muxammadixonovna, I. S., & Alimardon og, A. T. (2024). YANGI OZBEKISTONDA MEHNAT HUQUQINING RAQAMLASHTIRISH. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(20), 77-81.
5. Sh, S. U. (2024). THE MILITARY POTENTIAL AND DEVELOPMENT OF MILITARY ART OF THE KHOREZMSHAHS-ANUSHTEGINID STATE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 13(12), 11-13.
6. Уразалиева, И., Маматкулов, Б., Тураев, Б., & Рахматуллаева, М. (2022). ДУНЁДА СОҒЛИКНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙУНАЛИШЛАРИ.
7. Dilorom, U., Gulhayo, T., & Ilmira, U. (2017). The prevalence of iodine deficiency disorders in children of the Republic of Uzbekistan. International scientific review, (1 (32)), 98-99.
8. Avazbek, O. R. (2024). OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING KASBIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Interpretation and researches, 2(19), 108-111.
9. Makhsetbaevich, K. T. (2023, July). FUNCTIONS OF DEVELOPING INDEPENDENT LEARNING SKILLS IN AN INFORMED LEARNING ENVIRONMENT. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 7, pp. 55-58).
10. Baxtiyarovich, M. V. (2023). THE DESTRUCTIVE EFFECT OF SOCIAL NETWORKS ON THE FUTURE OF YOUTH DURING GLOBALIZATION. Open Access Repository, 9(6), 99-102.
11. Байназаров, М. М., Миркасимова, Х. Х., Саидалиев, С. С., Камолходжаев, Д. А., & Тураев, Б. Ш. (2023). Выявление маркеров хантавирусной инфекции в Узбекистане.
12. Mardiev Abdusamad o'g'li Shahbozxon Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Zokir o'g'li Mo'minmirzo. Jamiyat ijtimoiy hayotida musiqaning tutgan o'rni. Oriental Art and Culture, 2022. <https://scholar.google.com>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 112-sonli qarori. www.lex.uz
14. Ziyodaxon To'g'onboyeva, Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov. Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda xorij tajribasi. Oriental Art and Culture, 2022. <https://scholar.google.com>